

## TURKISTON O‘LKASIDA SOLIQ VA MOLIYA SIYOSATI

**I. M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”  
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

**Quvondiqova Z**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”  
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*E-mail: [izzatillakhon@gmail.com](mailto:izzatillakhon@gmail.com), [zulayxo5141902@gmail.com](mailto:zulayxo5141902@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasida joriy etilgan soliq tizimi, majburiy to‘lovlar hamda mehnat majburiyatlarining mazmuni va ularning mahalliy aholi hayotiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda imperiya mustamlakachilik siyosati doirasida soliq yukining oshirilishi, yer-suv munosabatlarining o‘zgarishi hamda iqtisodiy ekspluatatsiyaning kuchayishi yoritib berildi. Shuningdek, paxta yetishtirishga yo‘naltirilgan xo‘jalik siyosati, harbiy-ma‘muriy boshqaruvning soliq yig‘imlari bilan bog‘liqligi hamda mehnatkash xalq zimmasiga tushgan og‘ir majburiyatlar ko‘rib chiqildi. Maqolada ushbu jarayonlarning ijtimoiy oqibatlarini, ya‘ni aholining kambag‘allashuvi, qarzga botishi va norozilik harakatlarining kucha yishi ham tahlil etildi.*

**Kalit so‘zlar.** *Turkiston o‘lkasi, Rossiya imperiyasi, mustamlakachilik siyosati, soliq tizimi, harbiy-ma‘muriy boshqaruv, paxtachilik, iqtisodiy islohotlar, temir yo‘l qurilishi, ruslashtirish siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, xalq noroziligi, qo‘zg‘olonlar.*

**Abstract.** *This article provides a scholarly analysis of the taxation system, mandatory payments, and labor obligations introduced by the Russian Empire in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries, as well as their impact on the lives of the local population. The study highlights the increase in the tax burden within the framework of imperial colonial policy, changes in land and water relations, and the intensification of economic exploitation. It also examines the economic policy focused on cotton production, the relationship between military-administrative governance and tax collection, and the heavy obligations imposed on the working population. The article further analyzes the social consequences of these processes, including impoverishment, indebtedness, and the growth of public discontent and uprisings.*

**Keywords:** *Turkestan region, Russian Empire, colonial policy, taxation system, military-administrative governance, cotton production, economic reforms, railway construction, Russification policy, socio-economic changes, public discontent, uprisings.*

**Аннотация.** В данной статье научно проанализированы налоговая система, обязательные платежи и трудовые повинности, введённые Российской империей в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX веков, а также их влияние на жизнь местного населения. В исследовании освещены рост налогового бремени в рамках колониальной политики империи, изменения земельно-водных отношений и усиление экономической эксплуатации. Также рассмотрены хозяйственная политика, ориентированная на выращивание хлопка, взаимосвязь военно-административного управления с налоговыми сборами и тяжёлые обязанности, возложенные на трудящееся население. В статье проанализированы социальные последствия этих процессов, включая обнищание населения, рост долгов и усиление протестных движений.

**Ключевые слова:** Туркестанский край, Российская империя, колониальная политика, налоговая система, военно-административное управление, хлопководство, экономические реформы, железнодорожное строительство, политика русификации, социально-экономические изменения, народное недовольство, восстания.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati ta’siriga tushdi. Bu davrda imperiya tomonidan hududni siyosiy va iqtisodiy jihatdan to‘liq nazorat qilish maqsadida yangi boshqaruv tizimi joriy etildi. Ayniqsa, soliq siyosati va majburiy to‘lovlar tizimi tubdan o‘zgartirilib, mahalliy aholi zimmasiga og‘ir iqtisodiy yuk yuklatildi.

Rossiya imperiyasi Turkistonda o‘z manfaatlarini ta’minlash uchun yer-suv munosabatlarini qayta tashkil etdi, paxta yetishtirishni kengaytirdi hamda xomashyo bazasiga aylantirish siyosatini yuritdi. Natijada an’anaviy xo‘jalik tizimi izdan chiqib, aholining iqtisodiy ahvoli tobora og‘irlasha bordi. Soliq va majburiyatlarning ortishi, shuningdek, harbiy-ma’muriy boshqaruvning kuchayishi mehnatkash xalq hayotiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

**Natijalar.** Rossiya hukmron doiralari Turkiston o‘lkasiga mo‘l daromad manbai va arzon xom ashyo makoni sifatida qarab, xalqqa solinadigan soliq va majburiyatlarni ko‘paytirish siyosatini qo‘llab kelgan.

O‘lkada soliqlar miqdori tinimsiz oshib bordi. 1889-yildan 1896-yilgacha mustamlaka ma’muriyati soliqlarni 40 foizga oshirdi. General-gubernator imperatorga 1895–1897-yillar bo‘yicha bergan hisobotida soliqlarni yanada ko‘paytirib, o‘lkadan olinadigan daromadni oshirish uchun aholidan yangi harbiy soliq undirishni taklif qilgan. “Yerli aholi rus harbiy kuchi panohida barcha rus fuqarolari huquqlaridan teng foydalangan holda o‘z farovonligini oshirmoqda, – deb yozgan edi general-gubernator, – shu bilan birga u hech qanday asossiz rus

fuqaroligi beradigan katta imtiyozlardan ham foydalanmoqda. Shuning uchun ham bunday soliqning joriy etilishi xalqqa og‘ir botmagan holda davlat xazinasiga yiliga yarim million rubl daromad keltiradi.<sup>69</sup>

Mustamlakachilar sardori paxta yakka hokimligining tobora kuchayib borayotganini qayd etib: “1887-yilda 200.000 pudni tashkil qilgan Amerika navli paxta yetishtirish 1895-yilga kelib 500.000 pudga yetgan, ya’ni Rossiya sanoati iste’mol qiladigan tolaning uchdan bir qismini tashkil qilgan”, – deb yozadi.<sup>70</sup>

Imperiyaning Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri Krivoshin rus podshosiga yo‘llagan taqdimnomasida bu haqda shunday degan edi: “Rus xalqining siyosiy ustuvorligiga erishish uning xo‘jalik sohasidagi quvvati bilan mustahkamlanmog‘i lozim... O‘ziga to‘q musulmon aholisi o‘rtasida rus kelgindilari xo‘jaligi kambag‘al va xarob holda bo‘lmasligi kerak. Kelgindi rus xo‘jayinning yerida ishlovchi sartni ko‘rish maroqli hol bo‘lishiga shubha yo‘q. Bil‘aks, uning sart qo‘lida batrak bo‘lishi juda noxush va ko‘ngilsiz voqea ekanligi bizga ayon bo‘lmog‘i kerak” – deb yozgan.

Rossiya hukmronligi o‘rnatilgach, Turkistonda milliy davlatlar yo‘q qilinib, o‘lkaning siyosiy-ma‘muriy tizimi Rossiya manfaatlari nuqtai nazaridan shakllantirildi. Oliy va o‘rta boshqaruv lavozimlari rus harbiylari qo‘liga topshirilib, tubjoy xalqlar vakillari faqat ijrochi sifatida quyi lavozimlarga tayinlandi. Garchand bu borada saylov tartiblari joriy etilgan bo‘lsa-da, lekin rus davlatiga sodiq kishilargina saylanardi. Masalan, volost (bo‘lis) rahbarligi va qishloq oqsoqoligiga saylangan shaxslar shular jumlasidandir. Bunday hol Turkiston gubernatorligiga qarashli yerlarda hukm surgan edi. Rossiyaning mintaqadagi asosiy tayanchi bo‘lgan bu gubernatorlik Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarini o‘z ichiga olib, poytaxti Toshkent shahri hisoblangan.

O‘z navbatida, viloyatlar uezdlerden tashkil topgan. Chunonchi, Sirdaryo viloyatiga: Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Kazali va Perov; Farg‘onaga: Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon va O‘sh; Samarqandga: Jizzax, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Xo‘jand; Yettisuvga: Verniy, Kopal, Lepsin, Jarkent, Pishpak va Prjevalsk; Kaspiyortiga: Ashxobod, Krasnovodsk, Mang‘ishloq, Marv va Tajan uezlari kiritilgan. Viloyatlarni harbiy gubernatorlar, uezlarni esa boshliqlar boshqargan.

Shu tarzda Turkiston general-gubernatorligiga hozirgi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmanistonning talay qismi qaragan. Uning aholisi umumiy soni taxminan 5,5 million deb hisoblanib, o‘zbeklar salmoqli o‘rin egallagan. Aholi soni Buxoro xonligida

<sup>69</sup> Usmonov Q., Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 466

<sup>70</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 4

3 million, Xivada esa 500–700 ming kishidan iborat bo‘lgan. Bu joylarda ham o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil qilardi. Garchand Buxoro amirligi va Xiva xonligida eski davlat tuzumi saqlangan bo‘lsa-da, lekin ular amalda rus davlatining mustamlakalari bo‘lib, tom ma’nodan milliy davlatlar emas edi. Har ikkala xonlikning hukmdorlari bosqinchilar tomonidan qo‘g‘irchoqqa aylantirilgan shaxslar edi.

Xiva xonligida iqtisodiy va siyosiy islohotlar o‘tkazish zarur ekanligini amaldorlardan dastlab bosh vazir Sayyid Islomxo‘ja angladi. Uning taklif qilgan rejasi Asfandiyorxonning 1910-yil 10-sentabrda e‘lon qilingan farmonida o‘z aksini topdi. Unda xalqni ayrim soliq va majburiyatlardan ozod qilish, shariat qonunlarini qaror toptirish va adolatli siyosat yuritish, ommaga qadimdan og‘ir yuk bo‘lib kelayotgan tartib tizginlarni tugatish, qishloq xo‘jaligi va savdo-sotiqning rivoj topishi uchun butun imkoniyatlarini ishga solish kabi va‘dalar berilgandi.

Hujjat oxirida: “Bizning farmonimizda bayon qilingan samimiy istaklarmizning barchasini aniq va to‘g‘ri amalga oshirishni va uni xalqimiz hayotiga tatbiq qilishni Sayyid Islomxo‘jaga topshiraman”, deyilgandi.<sup>71</sup>

Demak, Bosh vazir taklif qilgan islohotlarni amalga oshirilishining barcha mas’uliyatlari uning o‘ziga yuklatilgandi. XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy munosabatlar keskinlashishi yaqqol holatda namoyon bo‘ldi. Aholining qashshoqlashishi, xon amaldorlari va katta yer egalarning zulmi, adolatsizlikning kuchayishi natijasida ayrim hududlarda norozilik harakatlari avj oldi. Ayniqsa, turkmanlar yashaydigan kamhosil hududlarda aholining turmushi murakkablashib bordi. 1912-yil boshida turkmanlardan yer solig‘i yig‘ish vaqtida vujudga kelgan norozilikni qurol bilan bostirish yuzasidan Turkiston general-gubernatoridan ruxsat olindi.

Mustamlaka ma’uriyatining kelgusi faoliyat dasturida ham o‘lkani ruslashtirish g‘oyasi asosiy o‘rinni egalladi. Oliy harbiy-siyosiy doiralar fikrini bayon etgan knyaz Masalskiy 1913-yilda bu haqda lo‘nda fikr bildirgan: “Turkistonda qariyb yarim asrlik hukmronligimizga yakun yasaganimizda beixtiyor shunday savol tug‘iladi: bu mamlakatdagi kelgusi faoliyatimiz dasturi qanday bo‘lishi lozim? Yaqin orada qanday vazifalarni amalga oshiramiz? Maqsadimiz nimalardan iborat va nimalarga intilishimiz lozim? Turkistonda navbatda hal etilishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri –o‘lkani rus aholisi bilan mustamlaka qilishdir. Rossiyaga qo‘shib olinganiga yarim asrcha vaqt o‘tganiga qaramay, o‘lkada bu aholi mahalliy musulmon nufusiga nisbatan juda ozchilikdir... Paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish va yaxshilashga biz doimo intilishimiz, bu borada sarf-xarajatlarni

<sup>71</sup> Mahmudov M, Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2013. – B. 136.

ayamasligimiz lozim. Chunki yaqin kelajakda sanoatimizni o‘z xomashyomiz bilan ta’minlash masalasi muhim hayot-mamot masalasiga aylanadi”.

Rus kapitali uchun o‘lka darvozasini keng ochib bergan temir yo‘l shoxobchalari o‘rgimchak to‘ri misol har yoqqa ildiz otib, 1885-yilda Ashxobodga, 1886-yilda Marv, Chorjo‘y va Amudaryogacha borib yetdi, Qoraqum sahrosidan o‘tgan po‘lat izlar 1888-yilda Samarqandga tutashdi. 1898-yilda Marv–Kushka tarmog‘i qurilib, bir yil o‘tib Farg‘ona vodiysi va Toshkent ham temir yo‘l bilan bog‘landi. Shu tariqa keyinchalik O‘rta Osiyo temir yo‘li deb nomlangan Kaspiyorti temir yo‘lining uzunligi 1748 chaqirimga yetdi. Mustamlaka xom ashyo manbalarini metropoliya sanoatiga yaqinlashtirishning navbatdagi vazifasi – Turkiston-Sibir temir yo‘lini qurish kun tartibiga qo‘yildi. “Juda muhim iqtisodiy, mustamlakachilik va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bu temir yo‘l liniyasini zudlik bilan qurish zarurati barchaga ayon”, – deb yozgan edi knyaz Masalskiy.

Temir yo‘l o‘lkada ruslashtirish jarayonini tezlashtirishda katta xizmat ko‘rsatdi. Rus kapitali bilan birga rus mujiklari, turli-tuman tovlamachilar, xonavayron bo‘lgan tijorat ahli – “janob toshkentliklar” oqimi kuchaydi. Metropoliyadagi xususiy kapital endilikda o‘lka tabiiy boyliklarini arzon va qulay yo‘l bilan tashib ketish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1895-yilning o‘zida Farg‘onadan Rossiyaga 3 million 399 ming 371 pud paxta, 451 ming 740 rubllik teri, 192 ming rubllik pilla tashib ketildi.

O‘lkaning gavhari bo‘lgan Farg‘ona viloyatiga minglab kelgindi mujiklar joylashtirildi. O‘sha voqealar shohidining yozishicha, 90-yillarda “tog‘u sahrolarda kambag‘al qirg‘izlarning tog‘lardagi mulklari tortib olinib, ichki Rossiyadan bir necha ming rus dehqonlari ko‘chirib kelinib bo‘lib berildi. Oxir-oqibat qirg‘izlar o‘z yerlaridan ham mahrum qilinib, keng tog‘larga siqib chiqarildi...” Shahar aholisi ham zulmdan bezor bo‘lib qolganidek, keng tog‘lardagi qirg‘izlar ham o‘z yerlaridan foydalana olmay qoldi. Chorva mollari uchun yaylovlar torayib, turli soliq va jarimalar ko‘paydi.

Bunday og‘ir sharoitlar natijasida xalq orasida mustamlakachilarga qarshi norozilik va qo‘zg‘olon ruhi kuchayib bordi. Samarqand viloyati harbiy gubernatori, general shtab general-mayori Gesketning 1905-yil 21-dekabrda tumanboshilarga yuborgan ko‘rsatmasida Samarqandning o‘zbeklar yashaydigan qismida “ayrim kimsalar xalqni soliqlarni to‘lamaslikka chaqirayotgani” ma’lum qilingan. General-gubernator idorasi hujjatlarida ham 1905-yil noyabr–dekabr oylarida rus inqilobchilari mahalliy aholini soliqlarni to‘lamaslikka, majburiyatlarni bajarmaslikka da’vat etayotgani, o‘zbeklarni “rus hukumatiga qarshi qo‘zg‘atishga urinayotganlari” alohida ta’kidlangan.

Xuddi shunday urinishlar haqidagi ma’lumotlar Sirdaryo va Kaspiyorti viloyatlari gubernatorlaridan ham olingan. Samarqand viloyati harbiy gubernatori 1907-yil 24-fevraldagi ma’lumotnomasida “Xo‘janddagi yangi soliq solinganidan keyin paydo bo‘lgan

boqimandalar, asosan, baqiroqlarining hukumatga qarshi gaplarining aholiga yetib borganligi oqibatidandir” deganida chuqur ma’no bor edi. Gubernator rus inqilobchilari va mahalliy aholi o’rtasida vositachi sifatida “Kavkazdan kelgan arman, gruzin, fors va boshqalar”ni tilga olib, ularni inqilobiy faoliyatni kengyoyish uchun juda qulay “material” deb baholaydi hamda kelgindilar “shu kungacha sodiq va tinch yerli aholini ham yo‘ldan urayotganini” ta’kidlaydi.<sup>72</sup>

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori esa 1907-yil 1-martda general-gubernatorga yo‘llangan maxfiy axborotida inqilobiy harakat qishloqlarga ham ko‘chganini va bu jarayon o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘layotganini shunday ta’riflaydi: “Hozirgi kundagi siyosiy jinoyatlar olomonning to‘poloni, g‘alayoni, talonchiligi, qotilligi kabi holatlar bilan uzviy bog‘langan. Turkistonda sekin-asta xalq noroziligi vujudga kela boshladi”.

**Xulosa.** Keltirilgan tarixiy ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati asosan iqtisodiy ekspluatatsiya va siyosiy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan edi. Soliqlarning muntazam oshirilishi, yangi majburiyatlarning joriy etilishi hamda yerli aholining iqtisodiy imkoniyatlari cheklanishi natijasida xalqning turmush darajasi keskin og‘irlashdi.

Bunday bosimlar aholining noroziligini kuchaytirib, soliq to‘lamaslik, majburiyatlarni bajarmaslik kabi harakatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Mustamlaka ma’muriyati esa bu jarayonlarni inqilobiy ta’sirlar bilan bog‘lab, mahalliy aholi va tashqi kuchlar o‘rtasidagi aloqalarni “xavfli omil” sifatida talqin qildi.

Shuningdek, o‘lkada ijtimoiy tanglikning kuchayishi natijasida norozilik harakatlari turli shakllarda — soliq siyosatiga qarshilik, tartibsizliklar va g‘alayonlar ko‘rinishida namoyon bo‘ldi. Bu holat Rossiya imperiyasining mustamlaka boshqaruv tizimi mahalliy aholining manfaatlariga zid ravishda qurilganini va uning barqaror emasligini ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov Q., Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Fozilbek Otabek o‘g‘li. Dukchi Eshon voqeasi. – Toshkent, 1992.
3. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov F. Istibdod. Qishloq hayoti, 1999.
4. Mahmudov M, Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2013.
5. To‘raev Halim. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2020.

<sup>72</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 486

6. Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchiligi tarixi (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar). – Toshkent: Sharq, 2000.
7. Alimova D A, Rtvladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: Sharq, 2001.
8. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998.